



## 2020-yilning yanvar-aprel oylarida QURILISH ISHLARI

### Raqamlar

Qurilish ishlari hajmi

**557,8** mlrd. so‘m

Yirik qurilish  
tashkilotlari ulushi

**1,2** %

Kichik korxonalar va  
mikrofirmalar ulushi

**88,8** %

Norasmiy sektor ulushi

**10,0** %

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida jami **557,8** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **80,2** % ni tashkil qildi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **6,5** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **50,1** % ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari **495,2** mlrd. so‘mni yoki jami qurilish ishlarining **80,5** % ini tashkil etib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **88,8** % ni tashkil etdi. Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **56,1** mlrd. so‘mni tashkil etib o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **83,3** % ni tashkil qildi.

### Yirik qurilish tashkilotlari

hajmi-6,5 mlrd. so‘m

o‘shish sur‘ati-50,1 %

### Kichik korxonalar va mikrofirmalar

hajmi-495,2 mlrd. so‘m


o‘shish sur‘ati-80,5 %

### Norasmiy sektor

hajmi-56,1 mlrd. so‘m

o‘shish sur‘ati-83,3 %

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 72,0 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 4,9 % bandga ko'paydi.




Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 15,9 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 8,3 % bandga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 12,1 % to'g'ri keldi hamda o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,4 % ga ko'paydi.




### Qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi (jamiqga nisbatan % da)



2019-yil  
yanvar-aprel

- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



2020-yil  
yanvar-aprel


**Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari tarkibi  
(mlrd. so‘m)**

	Jami qurilish ishlari	shu jumladan, qurilish ishlari tarkibi bo‘yicha		
		yirik qurilish tashkilotlari	kichik korxonalar va mikrofirmalar	norasmiy sektor
<b>Sirdaryo viloyati</b> <i>shaharlar</i>	<b>577,8</b>	<b>6,5</b>	<b>495,2</b>	<b>56,1</b>
Guliston	191,4	5,4	176,9	9,1
Shirin	27,5	-	26,9	0,6
<b>Yangiyer</b> <i>tumanlar</i>	<b>48,7</b>	<b>-</b>	<b>46,7</b>	<b>2,0</b>
Boyovut	45,6	0,7	40,6	4,3
Guliston	28,6	-	23,7	4,9
Mirzaobod	42,6	-	40,2	2,4
Oqoltin	41,9	-	38,9	3,0
Sardoba	17,1	-	13,2	3,9
Sayxunobod	18,9	0,1	17,2	1,6
Sirdaryo	58,2	0,1	37,4	20,7
Xovos	37,3	0,2	33,5	3,6

## Hududlarda qurilish ishlarining o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

### Sirdaryo viloyati



Viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi Guliston shahriga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish ishlarining o'sish sur'ati 81,0 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Sirdaryo tumanida 86,2 % ni tashkil qildi.


Qurilish ishlarining hududlar kesimida yuqori o'sish sur'ati Xovos tumanida kuzatilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 87,1 % ni tashkil qildi.





## Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)



■ Yirik qurilish tashkilotlari ■ Kichik korxonalar va mikrofirmalar ■ Norasmiy sektor

Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 88,8 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 80,5 % ni tashkil qildi.


Yirik qurilish tashkilotlari jami qurilish ishlaridagi tutgan ulushi 1,2 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 50,1 % ni tashkil qildi.

Norasmiy sektorda bajarilgan qurilish ishlari jami qurilish ishlarining 10,0 % ini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 83,3 % ni tashkil qildi.




## Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari (jamiga nisbatan % da)

2019-yil yanvar-aprel



2020-yil yanvar-aprel



 Davlat mulkchilik shakli

 Nodavlat mulkchilik shakli


Davlat mulkchiligi shaklidagi korxonalar tomonidan 20,5 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 3,7 % ni tashkil qildi va oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 1,3 % bandga kamaydi.




Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi korxonalar tomonidan 537,3 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 96,3 % ni (oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 1,3 % bandga koʻpayish) tashkil qildi.

## Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)



Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilgan qurilish ishlarining hajmini viloyatda eng yuqori ulushi Guliston shahriga 34,4 % ga to'g'ri keldi. Shu bilan bir qatorda Sirdaryo tumaniga 10,4 %, Yangiyer shahriga 8,7 %, Boyovut tumaniga 8,2 % va Mirzaobod tumanida 7,6 % dan to'g'ri keldi.



Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi.

Aloqa telefoni: (67) 225-02-37  
(67) 236-86-27